



**Adiba BOBAEVA,**

*Qorako 'Ichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'limi mudiri, PhD*

*E-mail: uzkarakul30@mail.ru*

*SamDU professori, b.f.d. Xaydarov X.Q. taqrizi asosida*

## GROWTH AND DEVELOPMENT OF SPECIES AND SAMPLES OF DESERT FEED PLANTS UNDER INTRODUCTION CONDITIONS

### Annotation

The article describes the characteristics of growth and development of nutritious plant species and samples collected from natural pastures of Bukhara region in the process of introduction in the conditions of wormwood ephemeral Karnab desert.

**Key words:** gypsum desert, pasture, species, sample, growth, viability, introduction, nurseries, hay yield, soil moisture.

## РОСТ И РАЗВИТИЕ ВИДОВ И ОБРАЗЦОВ ПУСТЫННЫХ КОРМОВЫХ РАСТЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ИНТРОДУКЦИИ

### Аннотация

В статье описаны особенности роста и развития питательных видов растений и образцы, собранные с естественных пастбищ Бухарской области в процессе интродукции в условиях полынной эфемерной пустыни Карнаб.

**Ключевые слова:** гипсовая пустыня, пастбище, вид, образец, рост, жизнеспособность, интродукция, питомники, урожайность сена, влажность почвы.

## INTRODUKSIYA SHAROITIDA CHO'L OZUQABOP O'SIMLIKHLARI TUR VA NAMUNALARINING O'SISHI VA RIVOJLANISHI

### Annotatsiya

Maqlolada Buxoro viloyati tabiiy yaylovlardan terib kelning ozuqabop o'simlik tur va namunalarining shuwoq efemerli Qarnab cho'l sharoitida introduksiyalash jarayonidagi o'sish va rivojlanish xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** gipsli cho'l, yaylov, tur, namuna, o'sish, yashovchanlik, introduksiya, ko'chatzorlar, xashak hosildorligi, tuproq namligi.

**Kirish.** Qorako 'Ichilik yaylovlarining mintaqaviy joylashishi asosan qumli, gipsli cho'llar va adirlarni qamrab oladi. Ushbu yaylovlarda deyarli yil bo'yli chorva hayvonlari boqiladi va eng arzon ozuqa manbai hisoblanadi. Yaylovlarning o'rtacha hosildorligi hektaridan 1,5-3,6 sentnerni tashkil qilib, yillar va yil mavsumlari bo'ylab o'zgarib turadi. Hozirgi kunda yoz oylaridagi kuzatilayotgan anomal issiq harorat, namgarchilik miqdorining pasayib ketganligi, tuproq unumdarligining kamayishiga va cho'l-yaylov ekotizimining yomonlashuviga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 10-iyunidagi PQ-277 son "Erlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish to'g'risida" gi qarorida 2022-2025 yillar davomida inqirozga uchragan cho'l yaylovlari o'simlik qoplalmini qayta tiklashdek dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlash esa cho'lning ekstremal sharoitlarida o'sishga yaxshi moslashgan, yuqori ozuqa hosilini to'plovchi o'simlik turlarini ko'paytirishni taqozo etadi. Aynan shu bois, cho'l yaylovlarni fitomeliorasiyalash tadbirlarini amalga oshirishda cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi, seleksiyasi yo'nalishlaridagi ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari muhim o'rinni egallaydi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Keyingi yillarda cho'l va adir mintaqasida istiqomat qiluvchi aholiga tegishli shaxsiy chorva hayvonlar sonining jadal ko'payishi ham yaylovarga bo'lgan talabning yanada kuchayishi va yaylov inqirozining jadallahuviga olib kelmoqda. Yaylovlar inqirozining oldini olish, ularni fitomeliorasiyalash orqali hosildorligini oshirish muammosi respublikamiz uchun yangi muammo emas va bu yo'nalshda alohida e'tirofga loyiq ilmiy yutuqlarga erishilgan.

Seleksiya tanlov ishlari dastlab cho'l ozuqabop o'simliklari tarqalish arealidan ularning genofondini yig'ish, ularni qiyosiy baholash va mahalliy sharoitlarda o'sishga yaxshi moslashgan, yuqori hosilli namunalarini seleksiya manbai sifatida tanlab olishdan boshlangan. A.Rabbimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda izenning turli ekologik tiplariga mansub 160 ga yaqin namunalari yig'ilgan va ular qiyosiy baholanib qator istiqbolli seleksiya manbalari tanlab olingan [4].

Atriplex L. turkumiga mansub ko'p yillik Atriplex canescens va Atriplex undulata turlari O'zbekiston tabiiy florasida uchramaydi. Mazkur o'simlik turlari urug'lari ICARDA (qurg'oqchil mintaqalarda qishloq xo'jaligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish Xalqaro Markazi, Aleppo) va ICBA (sho'rangan tuproqlarni biotik melioratsiyalash Xalqaro Markazi, Dubay) tashkilotlaridan olinib, introduksion, seleksion tadqiqotlar natijasida Atriplex undulata o'simligining «Yagona» navi yaratiligan [7].

Atriplex canescens va Atriplex undulata o'simlik turlari shuwoq efemerli Qarnabcho'lning inqirozga uchragan sho'rxok-qumoq yaylovlarida o'sishga yaxshi moslashgan bo'lib, yaylovlar hosildorligini 20-25 s/ga ga etkazish imkonini beradi [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dala tajribalari, fenologik kuzatishlar, o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosildorlik ko'rsatkichlari, biometrik o'chovlar (O'simliklar introduksiyasi va seleksiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar, [5], olingan ma'lumotlarni biostatistik tahlil qilishda, [3] taklif etган uslublardan foydalanildi).

**Tahsil natijalari.** Hozirgi kunda cho'l yaylovlar mahsuldarligini oshiruvchi, qimmatli ozuqaviy xususiyatlarga ega cho'lning o'ta noqulay ob-havo sharoitlariga chidamlı o'simliklar turlarini ko'paytirish eng dolzarb muammolardan ekanligini e'tiborga olib, ularni madaniylashtirishga diqqat e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning Buxoro viloyati cho'l mintaqalarida keng tarqalgan, yaylovlarini fitomelioratsiyalashda eng istiqbolli deb tan olingan, cherkez, quyrovuq, cho'g'on, boyalich, qandim va boshqa turlarning tabiiy populyatsiyalari mavjud va ularning genofondini yig'ish va muhofaza qilish o'ta zarur. Ushbu cho'l ozuqabop o'simlik turlari tabiatda qumli, gipsli cho'llarda psammofit, gipsofit va galofit o'simlik turlari bilan birgalikda tarqalgan. Shu bois, shuvvoq efemerli Qarnabcho'l sharoitida ko'paytirishni ilmiy asoslarini ishlab chiqish uchun uning ekologik, biologik, xo'jalikdagi ahamiyatli tomonlarini o'rganishni lozim topdi.

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiysi bo'limi tomonidan cho'l ozuqabop o'simliklari urug'lari pishib etilish davri oktyabr-noyabr oyalarida Buxoro viloyati Qorako'l va Gazli tumanlari tabiiy yaylovlarida tarqalgan ozuqabop turlar urug'larini yig'ish ekspedesiyasi davomida 6 tur, 12 namunadan iborat sho'radoshlar-Chenopodiaceae oilasidan- paleskiy cherkezi-Salsola paletzkiana- Buxoro viloyati, Qorako'l tumani Uchqir massividan, cho'g'on-Halothamus subaphylla Aell. (Botsch)- Buxoro viloyati, Gazli tumani, Qo'yrovuq-Salsola orientalis S. G.Gmell, boyalich- Salsola arbuscula Pall - kabi bir qancha tur va namunalar urug'lari yig'ib terib kelindi. Ushbu yig'ilgan urug'lardan institutning "Qarnab" tajriba dalasida kolleksion ko'chatzorlar barpo etildi. Parvarishlanayotgan ko'chatzorlardagi tur va namunalarning unib chiqishi va yashovchanligi ko'rsatkichlari 4 tur va 8 namunadan iborat o'simliklarda qoniqarli natijalariga erishildi.

**Fenologiyasi.** Shuvoq efemerli Qarnabcho'l sharoitida 2020 yilning yanvar oyi birinchi un kunligida ekilgan tur va namunalar 2021 yil mart oyining 2-chi o'n kunligida deyarli barcha tur va namunalarda maysalarning unib chiqganligi kuzatildi.

O'simliklarning o'suv davrining ikkinchi vegetatsiya yilida eski shoxlaridan, ildiz bo'g'zidan mart oyida qayta ko'kardi. Barcha o'simlik turlari va namunalardan (cho'g'onning "Rometon" populyatsiyasi, qo'yrovuqning "Uchqir-2", boyalichning "Gazli" namunalarning vegetatsiya davomiyligi 220-250, kun ekanligi aniqlandi.

**Yashovchanligi.** Hisob paykalchalaridagi o'simliklarning tur sonini bahorda va kuzda aniqlash va yashab qolgan o'simliklarning soni bilan taqqoslash orqali aniqlandi.

O'simliklarning tur soni dinamikasini o'rganish shuni ko'satdiki, unib chiqqan maysalarning 1-yilda yashovchanligi ancha yuqori, ya'ni quyrovuq namunalarini orasida 18 donadan 22 donagacha, boyalich namunalarida esa 15-20 donani, cherkez namunalardan 13-17 donani, cho'g'onning "Rometon" populyatsiyasida bu ko'rsatkich 24 dona ekanligi qayd etildi. (1-jadval). Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, maysalarning nobud bo'lishi barcha tur va namunalarda may-avgust oylaridagi havo haroratining keskin qizib ketish davrida (yozgi qurg'oqchilik) kuzatiladi. 3-yilidan keyin tur sonining kamayishi deyarli kuzatilmadi.

Sinalayotgan tur va namunalar orasida cho'g'on va cherkez namunalarda birinchi vegetatsiya yilidayoq generativ fazaga kirish holati qayd etildi. Bu o'simlik tur va namunalarda esa, oktyabr oyining birinchi o'n kunligida urug' hosil qilish holati kuzatildi.

1- jadval

O'simlik tur va namunalarning yashovchanligi ko'rsatkichlari, 36 m<sup>2</sup> maydonda. dona

%

№	Tur va namunalar	Yashovchanligi, dona %		
		2021 (1)	2022 (2)	2023 (3)
1	Qo'yrovuq "Jondor"	18 100	12 66,6	12 66,6
2	Quyrovuq "Uchqir 2"	22 100	15 68,2	15 68,2
3	Boyalich "Gazli"	15 100	9 60	7 46,6
4	Boyalich "Uchqir-2"	20 100	12 60	9 45,0
5	Cho'g'on "Rometon"	24 100	17 70,8	15 62,5
7	Cherkez "Uchqir-2"	13 100	11 84,6	9 69,2
8	Cherkez "Gazli"	17 100	13 76,4	10 58,8

**O'simliklarning o'sish.** Introduksion ko'chatzorlarda parvarishlanayotgan tur va namunalarning bo'yiga o'sish ko'rsatkichlari o'simliklarning vegetatsiyasining 1-yilida jadal o'sish jarayoni may-iyun oylarida kuzatildi. Vegetatsiya davrining oxirida (oktyabr) oyi natijalariga ko'ra, qish hamda bahor oylarida yog'ingarchilik miqdorining kam bo'lganligi, tajriba dadalsida tuproq namliq o'rtacha 1,34% dan 4% gacha o'zgarib turgan sharoitda o'simliklarning namunalarini orasidagi o'sish ko'rsatkichlari deyarli farq kuzatilmadi va bu ko'rsatkich o'rtacha qo'yrovuq namunalarida 38,2- sm ni, boyalich namunalarini orsida esa bir oz farq bilan 35,0-38,6 sm ni tashkil etdi. Cherkez namunalarda ham deyarli farq kuzatilmadi va 50,0-52,0 sm gacha bo'yiga o'sganligi qayd etildi. Tur va namunalar orasida eng yuqori bo'yiga o'sish ko'rsatkichi cho'g'onning "Rometon" populyasiyasida kuzatildi (2-jadval).

O'simliklarning 2-chi vegetatsiya (2022) yilida Tur va namunalarda buyiga o'sishi ko'rsatkichlarda sezilarli farq kuzatildi va bu ko'rsatkich tur va namunalar orasida o'rtacha 10-15 sm ni tashkil etdi. Jumladan, qo'yrovuqning "Jondor" namunasi bo'y 71,3 sm bo'lgan bo'lsa, Uchqir 2" namunasida esa bu ko'rsatkich 56,6 sm ni, boyalichning "Gazli" namunasida 70,0 sm ni hamda "Uchqir-2" namunasida esa 62,8 sm ni tashkil qildi (2-jadval).

Uchinchi vegetatsiya yilida (2023) esa respublikamizda kuzatilgan anomal havo harorati, parvarishlanayotgan o'simliklarning o'sish va rivojlanish jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadidi. Tur va namunalar orasida cherkez namunalardan tashqari boshqa tur va namunalarning o'sish ko'rsatkichlarda qoniqarli natijalar qayd etildi (2-jadval).

2- jadval

O'simlik tur va namunalarning bo'yiga o'sish ko'rsatkichlari, Qarnab tajriba dalasi, 2021-2023 yy.

№	Tur va namunalar	O'simliklarning bo'yiga o'sishi, sm. $X \pm S_x$		
		2021 (1)	2022 (2)	2023 (3)
1	Qo'yrovuq "Jondor"	38,2±0,53	71,5±3,1	43,0±3,6
2	Quyrovuq "Uchqir 2"	38,1±1,2	56,6±3,5	39,9±4,0
3	Boyalich "Gazli"	35,0±1,5	70,0±2,7	26,5±3,5
4	Boyalich "Uchqir-2"	38,6±3,2	62,8±2,3	32,6±1,7
5	Cho'g'on "Rometon"	52,6±2,1	73,0±3,0	66,5±1,4
7	Cherkez "Uchqir-2"	52,0±6,9	129,9 ±3,8	142±23,5
8	Cherkez "Gazli"	50,0±4,1	70,0±4,2	156±34,0

**O'simliklarning quruq xashak hosildorligi.** Cho'l ozuqabop o'simliklarining eng yuqori hosil to'plash davri, o'simliklar hayotining 4-5 yillarida kuzatilib, keyingi yillarda kuzatiladigan iqlim sharoitlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Tur va namunalarning uchinchi vegetatsiya yilida quruq xashak hosildorligini aniqlashda model tuplar usulidan foydalandik. Quruq xashak hosildorligining yuqoriligi bo'yicha quyrovuq namunalari orasida deyarli farq kuzatilmadi va bu ko'rsatkich o'rtacha 187-200 gram ni tashkil etdi, boyalich namunalari orasida esa boyalichning "Uchqir-2" namunasining quruq xashak hosildorligida bir oz farq kuzatildi va bu ko'rsatkich 283 gr. ekanligi qayd etildi.

**Xulosa va takliflar.** Buxoro viloyati cho'l mintaqalaridan terilgan cho'l ozuqabop o'simliklari tur va namunalaridan institutning "Qarnab" tajriba dalasida "kolleksion tanlov" ko'chatzorlari barpo etilib, introduktsiyalash jarayonida selektsiya ishlari uchun dastlabki manbalarini tanlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida cho'l-yaylov ozuqabop o'simliklarining mahalliy navlari yaratiladi va ushbu navlar respublikamizning qurg'oqchil hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan MChJ, fermer, dehqon xo'jaliklari yaylovlari holatini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил, 10-июнидаги ПҚ-277 сон "Ерлар деградациясига қарши курашишнинг самарали чора-тадбирларини ишлаб чиқиш тўғрисида" ги қарори. Lex.uz.
- Бобаева А.С. Қарнабчўлда интродукциялаш шароитида *Salsola arbuscula* Pall. ўсимлигининг яшовчанлиги. Намангандавлат Университети Илмий Ахбортномаси, №2, 2019 й, 73-76 б.
- Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. –М.: "Колос", 1985. – 350.
- Раббимов А. Ўзбекистонда изен (*Kochia prostrata* (L) Schrad) ўсимлиги ва ундан фойдаланиш. Самарқанд, 2014. "Zarafshon" нашириёти ДК. 111-б.
- Раббимов А., Ҳамроева Г. Чўл озуқабоп ўсимликлари инродукцияси ва селекцияси бўйича услубий тавсиялар. Самарқанд, 2016.-42 б.
- Ҳамроева Г.У. Шувоқ-барра ўтли Қарнабчўл икlim шароитида кўп йиллик олабута (*Atriplex* sp.) турларини маданийлаштиришнинг агротехник асослари. Дисс.автореферати, Самарқанд, 2018.- 44 б.
- Davlat nav sinash komissiyasining 21.08.2017 у., №53/4-369 son ma'lumotnomasi.